XALQ DEPUTATLARI QUYI CHIRCHIQ TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 24 - yanvar VI-54-4-10-140-K/22 Quyi Chirchiq tuman hokimligi

Quyi Chirchiq tumanining 2022 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, 2021 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-742-sonli “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2022-yil 8-yanvardagi “Toshkent viloyatining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to`g`risida”gi VI-44-4-10-0-K/22-sonli qarori hamda Toshkent viloyati hokimligi Moliya bosh boshqarmasining 2021 yil 30 dekabrdagi 01-20/27-01-38/5281-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Quyi Chirchiq tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2021 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-742-sonli Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2022-yil 8-yanvardagi “Toshkent viloyatining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to`g`risida”gi VI-44-4-10-0-K/22-sonli qarori hamda Toshkent viloyati hokimligi Moliya bosh boshqarmasining 2021 yil 30 dekabrdagi 01-20/27-01-38/5281-sonli xatiga muvofiq, Quyi Chirchiq tumani mahalliy budjetining 2022 yil uchun daromadlari 68 261 904,0 ming so‘m va xarajatlari 121 577 774,0 ming.so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyi Chirchiq tumani 2022 yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga, xarajatlari prognozi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2022 yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022 yil uchun viloyat budjetidan Quyi Chirchiq tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert miqdori 4-ilovaga muvofiq 53 315 870,0 ming so’m miqdorida tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2022 yil uchun tumanning zaxira jamg‘armasi hajmi tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi 1146 960,0 ming so‘m miqdorida shakllantirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 5-ilovaga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. 2022 yil uchun tumanning budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 900 031,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

9. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkazilishi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkazilishi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga

undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

yer uchastkalariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

tuman darajasida bo‘lmagan boshqa daromadlar.

c) viloyat budjeti hamda tuman budjeti o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanishi:

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno).

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq tuman mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 42 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 40 foizi miqdoridagi tushumlar viloyat budjeti hamda tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

g) Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq tuman mahalliy budjetlariga o‘tkazib berilishi;

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat budjetiga o‘tkazilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Karimdjanov), Moliya bo’limi (B.Isroilov), Davlat soliq inspeksiyasi (Y.Artikbayev) tumandagi mas’ul idora va tashkilotlar bilan birgalikda:

budjetni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Y.Artikbayev) soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Y.Artikbayev), Davlat kadastrlari palatasi Quyi Chirchiq tumani filiali (Sh.Isroilov) 2022 yildan boshlab yuridik shahslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

13. Tuman hokimligi (A.Karimdjanov) tuman davlat soliq inspeksiyasi (Y.Artikbayev) bilan birgalikda:

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

14. Majburiy ijro byurosi Quyi Chirchiq tumani bo’limi (B.Ahmedov) Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Y.Artikbayev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borish vazifasi yuklatilsin.

15. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo’limi (M.Egamberdiyev), tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

16. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Y.Artikbayev), tuman hokimligi moliya bo’limi mudiri (B.Isroilov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2022 yilning 1 iyuliga qadar 2021 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2022 yilning 1 sentyabridan kechiktirmay maxalliy budjetga o‘tkazilishini ta’minlasin.

17. Quyi Chirchiq tumani moliya bo’limi (B.Isroilov):

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har chorak yakuni bilan Kengasha axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

18. Kengashning mahalliy byudjetni shakillantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

19. Tuman hokimligi (A.Karimdjanov)

Tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

20. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakillantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Amanbayev) va tuman hokimining birinchi o’rinbosari (A.Karimdjanov) zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi **А. Холмурадов**

Халқ депутатлари Қуйи Чирчиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 24 январдаги
VI-54-4-10-140-K/22-сон қарорига
1-илова

2022 YIL UCHUN TOShKENT VILOYATI QUYI CHIRCHIQ TUMANI BO‘YICHA MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARINING REJA KO‘RSATKICHLARI

Daromad turlari		**Summa ming so‘m**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	948 026
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	2 962 026
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	4 945 424
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	718 519
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi akцiz solig‘i	2 990 002
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 615 755
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 778 816
6	Yuridik shaxslar er solig‘i	10 296 680
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i	6 571 138
7	Qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	9 589 754
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 463 089
9	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	515 116
JAMI		**50 394 345**
	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun akцiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	**17 867 559**
13	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	6 762 528
14	Mobil aloqa xizmati	3 852 728
15	Tamaki mahsulotlari akцiz solig‘i	7 252 303
JAMI DAROMAD		**68 261 904**

Халқ депутатлари Қуйи Чирчиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 24 январдаги
VI-54-4-10-140-K/22-сон қарорига
2-илова

2022 YIL UCHUN TOSHKENT VILOYATI QUYICHIRCHIQ TUMANI BO‘YICHA MAHALLIY BYUDJET XARAJATLARINING REJA KO‘RSATKICHLARI

Ko‘rsatkichlar		Miqdori (ming so‘m)
	Xarajatlar - jami	**121 577 774**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**92 434 435**
1.1	Maorif	16 244 641
	- maktabgacha ta’lim	5 884 552
	- umumiy ta’lim	10 360 089
1.2	Sog‘liqni saqlash	45 697 212
	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	42 240
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	4 882 939
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 548 420
	- sport	3 334 519
1.4	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	25 465 144
1.5	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	102 259
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**10 495 158**
2.1	Obodonlashtirish	8 734 364
2.2	Veterinariya qo‘mitasi	1 040 568
	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	720 226
3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**7 959 481**
3.1	Davlat boshqaruv idoralari	7 959 481
4	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**3 806 939**
5	**Zahira jamg‘armasi**	**1 146 960**
6	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**5 734 801**

Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 53 315 870

Халқ депутатлари Қуйи Чирчиқ туман Кенгашининг
2022 йил 24 январдаги
VI-54-4-10-140-K/22-сон қарорига
3-илова

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq hamda Bo‘stonliq tumani bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	**Quyichirchiq tumani**	10	10	80	80	80	50	100	100

Халқ депутатлари Қуйи Чирчиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 24 январдаги
VI-54-4-10-140-K/22-сон қарорига
4-илова

Toshkent viloyati shahar va tumanlar budjetlariga 2022 yilda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘m

T/r	Shahar va tumanlar	Summa
1	Quyichirchiq tumani	53 315 870,0

Халқ депутатлари Қуйи Чирчиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 24 январдаги
VI-54-4-10-140-K/22-сон қарорига
5-илова

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2022 yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (so‘mda)
	Quyichirchiq tumani	**1,00**	**20672.4**	**1,00**	**189.0**
1	Baliqchi MFY	0,9	18 605,2	1,04	196,6
2	To’qboy MFY	1,0	20 672,4	1,14	215,5
3	Abay MFY	0,9	18 605,2	0,75	141,8
4	Gul MFY	0,9	18 605,2	0,95	179,6
5	O’jakent MFY	0,9	18 605,2	0,85	160,7
6	Yulduz MFY	0,9	18 605,2	0,85	160,7
7	Pahtachi MFY	0,9	18 605,2	0,95	179,6
8	Do’stlik MFY	0,9	18 605,2	0,85	160,7
9	Jumag’ul MFY	0,9	18 605,2	0,85	160,7
10	Madaniyat MFY	0,9	18 605,2	1,04	196,6
11	Mevazor MFY	0,9	18 605,2	1,04	196,6
12	Yilqch MFY	0,9	18 605,2	0,93	175,8
13	Kushek MFY	0,9	18 605,2	0,93	175,8
14	Surum MFY	1,0	20 672,4	1,04	196,6
15	Sergeli MFY	1,0	20 672,4	1,04	196,6
16	Ibrat MFY	1,0	20 672,4	1,20	226,8
17	Mirobot MFY	1,0	20 672,4	1,20	226,8
18	Navqiron MFY	1,0	20 672,4	1,20	226,8
19	Mashrab MFY	1,0	20 672,4	1,20	226,8
20	Shodlik MFY	1,0	20 672,4	1,15	217,4

21	Mingchinor MFY	1,0	19 638,8	1,14	215,5
22	Oydinobod MFY	1,0	19 638,8	1,04	196,6
23	Xo’ja MFY	0,9	18 605,2	1,04	196,6
24	Galabatir MFY	0,9	18 605,2	0,94	177,7
25	Chaqmoq MFY	0,9	18 605,2	1,00	189,0
26	Bog’iston MFY	0,9	18 605,2	0,84	158,8
27	Uchchinor MFY	0,9	18 605,2	0,94	177,7
28	Vatan MFY	0,9	18 605,2	0,84	158,8
29	Pahtazor MFY	1,0	20 672,4	1,14	215,5
30	Do’stlik MFY	0,9	18 605,2	0,95	179,6
31	Birlik MFY	1,0	20 672,4	1,08	204,1
32	Tinchlik MFY	0,9	18 605,2	1,08	204,1
33	Beruniy MFY	0,9	18 605,2	1,17	221,1
34	Bishkent MFY	0,9	18 605,2	0,85	160,7
35	Xo’japiskon MFY	0,9	18 605,2	0,95	179,6
36	Chinobot MFY	0,9	18 605,2	0,95	179,6
37	Ko’ksaroy MFY	0,9	18 605,2	0,85	160,7

Халқ депутатлари Қуйи Чирчиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 24 январдаги
VI-54-4-10-140-K/22-сон қарорига
6-илова

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)	Belgilangan qiymat (so‘m)
1	Quyichirchiq tumani	1,00	1 000 000,0